

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/03.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

SULTONOVA MAS‘UDA ABDUVALIYEVNA

**QUVURLI TEGIRMONLARDA SEMENTNI MAYDALASH
JARAYONINI JADALLASHTIRISH**

02.00.16-Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
in Technical Sciences**

Sultonova Mas‘uda Abduvaliyevna

Quvurli tegirmonlarda sementni maydalash jarayonini jadallashtirish..... 3

Султонова Масъуда Абдувалиевна

Интенсификация процесса помола цемента в трубных мельницах..... 21

Sultonova Mas‘uda Abduvaliyevna

Intensification of the cement grinding process in pipe mills..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/03.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

SULTONOVA MAS‘UDA ABDUVALIYEVNA

**QUVURLI TEGIRMONLARDA SEMENTNI MAYDALASH
JARAYONINI JADALLASHTIRISH**

02.00.16-Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4397 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)), ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tkti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xurmamatov Abdug'offor Mirzabdullaevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Safarov Jasur Esirgapovich
texnika fanlari doktori, professor

Nig'madjonov Samug'jon Karimjonovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning "6" 01 2025 yil soat 9:00 da Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma'muriy binoning 2-qavat Anjumanlar zalida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayhontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20; faks: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 884 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayhontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20, e-mail: tkti_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "10" 12 kuni tarqatildi.

(2024 yil "10" 12 № 184 raqamli ilmiy kengashning bayonnomasi).



Turobjonov S.M.
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d.,
akademik

Kadirov H.I.
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik ilmiy kengash ilmiy
kotibi, t.f.d., professor

Rahmonberdiev G.R.
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda qurilish materiallari sanoati, ya'ni sement ishlab chiqarishda, energiya va resurstejamkor zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, mahsulot ishlab chiqarishda elektr energiyasining solishtirma sarfini kamaytirish muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy sement ishlab chiqarish korxonalarining quvvati 1-3 mln. tonnani tashkil etadi. Sarflanadigan elektr energiyaning katta miqdori xom-ashyoni maydalash, aralashtirish, kuydirish, olingan klinkerni gips va qo'shimchalar bilan mayda tuyishga to'g'ri keladi. Shu sababli, sementni maydalash uskunalarning konstruksiyasini takomillashtirish va ekologik ko'rsatkichlari jahon talablariga mos yuqori sifatli mahsulotlar olish tizimini yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda sement mahsulotlarini maydalash texnologiyalarining umumiy rivojlanishi, ya'ni maydalashning ikki bosqichli tizimini korxonalariga ko'proq joriy qilish tavsiyalari berilib, klinkerni dag'al maydalash uchun vertikal jo'vali tegirmonlar afzalliklari keng e'tirof etilmoqda. Bu borada maydalash jarayonlarini samarador qurilmalarda amalga oshirish, sharli tegirmonlarni hisoblash va yuqori samarali maydalash elementlarini ishlab chiqish, mavjudlarini unumdor va samarali namunalar bilan almashtirish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizning qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish tarmog'ida ishlab chiqarish islohotlarini chuqurlashtirish va ularni rivojlantirish, qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari turini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida «Sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xom-ashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahsulot sifatini oshirish, energiya sarfini kamaytirish imkonini beruvchi qurilmalar ishlab chiqish, sementni maydalash jarayonining zamonaviy texnologiyalarini yaratish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 1 maydagi PQ-4302-sonli «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-sonli «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni

rivojlantirish dasturining VII “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sement va boshqa turdagi bog‘lovchilarni maydalashni jadallashtirish borasidagi ilmiy izlanishlar V.K.Klassen, D.K.Kryukov, V.D.Barbanyagre, V.S.Bogdanov, V.S.Sevostyanov, I.N.Borisov, V.I.Kalashnikov, S.I.Xanin, R.R.Sharapov, Yu.M.Fadin, P.V.Zozulya, A.A.Krikunova, N.S.Sembaev, K.De.Vert, W.Scherer, W.R.Dersnah, R.A.Loveland, F.W.Locher, B.Schiller, I.S.Kansepolskiy, B.I.Nudelman, T.A.Atakuziev, N.A.Sirojiddinov, A.A.Ismatov, E.U.Kasimov, U.A.Gaziev, A.A.Tulaganov, X.X.Kamilov, M.Iskandarova, N.X.Tolipov, Z.P.Pulatov, A.A.Muxamedbayev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ular tomonidan turli hil bog‘lovchi materiallarni mexanik usulda aktivlashtirish, maydalashda energiya tejamkor usullarni ishlab chiqish, tegirmon zirx qoplama plitalarining yangi turlarini loyihalash va ular asosida zirx qoplamasi sxemalari joriy qilingan.

Shu bilan birga tegirmon toshlarining samarali sinflanishini ta‘minlaydigan faol sirt yuzali zirx plitalarni loyihalash, maydalik darajasini aniqlashning tezkor usullarini ishlab chiqish, sharli tegirmonlarda maydalash jarayonini jadallashtirishning boshqa usullarini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarayotgan tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining 87-raqamli “«QIZILQUMSEMENT» AJ ning 1-7-sement tegirmonlarining texnik holatini tadqiq qilish” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi turdagi zirx qoplamalardan foydalanib sementni maydalash quvurli tegirmoni quvvatini oshirish va ichki havo oqimlarini optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sharli tegirmonlarda qattiq materiallarni maydalashni faollashtirishning nazariy tamoyillarini o‘rganish;

sementni maydalash jarayonida sirt-faol moddalarning ro‘lini aniqlash;

quvurli tegirmonlarda zirx qoplamalarni barpo etishning printsipial yangi sxemasini ishlab chiqish;

sementni maydalik harakteristikasini aniqlashda zamonaviy yondoshuvni shakllantirish;

ko‘p kamerali quvurli tegirmon ishlab chiqarish quvvatini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash;

sementni maydalash uchun takomillashtirilgan energiya tejamkor qurilma ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida sementni maydalash jarayonining rejim ko‘rsatgichlari va maydalangan sementni solishtirma sirt yuzasini aniqlash usullari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida quvurli tegirmon va ularning zirx qoplamalari tanlab olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda zamonaviy fizik-mexanik va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari hamda tajribalarni matematik 3D modellashtirishning Solid Works Flow Simulation amaliy dasturlari to'plamidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uch to'liqli qoplama plitalarini qo'llash bilan sharli yuklamaning ish bajarish qobiliyatini oshirish imkoniyatlari asoslangan;

pog'onali rejimda ishlaydigan sharli yuklamaga mo'ljallangan perspektiv sirt yuzali qoplama plitalarini ishlab chiqish printsiplari isbotlangan;

perspektiv sirt yuzali qoplama plitalarini qo'llash orqali shar-material aralashmasidagi turg'un hududlarni parchalash yo'li bilan qattiq materiallarni maydalash maqbul ko'rsatkichlari aniqlangan;

ilk bora matematik 3D modellashtirish dasturlarini qo'llash orqali quvurli tegirmon kameralararo to'sig'iga yaqin masofalarda tegirmon ichki havosi oqimida tezligi past halqalar hosil bo'ladigan hududlar aniqlangan;

maydalik harakteristikasini aniqlashda cho'kma hajmini aniqlashga asoslangan tezkor usul yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quvurli tegirmonlar uchun shar-material aralashmasidagi turg'un hududlarni parchalashni ta'minlaydigan perspektiv sirt yuzali zirx qoplamalar ishlab chiqilgan;

pog'onali rejimda ishlaydigan sharli yuklamaga mo'ljallangan perspektiv sirt yuzali qoplama plitalar va ikki kamerali quvurli tegirmonlar uchun zirx qoplamaning yangi sxemasi ishlab chiqilgan;

maydalik harakteristikasini aniqlashda vaqt va materiallar sarfini kam talab etadigan yangi usul ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarni zamonaviy usul va vositalarni hamda tajribalarni matematik rejalashtirish usullarini qo'llagan holda bajarilganligi, tajriba yo'li bilan olingan xulosalarning nazariy asos bo'luvchi qonuniyatlar bilan mosligi, shuningdek, ishlanmalarning ishlab chiqarish sharoitlarida aprobatsiya qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sement ishlab chiqarishda maydalash jarayonlarini faollashtirish masalalarini o'rganishda, sanoatda ishlatiladigan tadqiqot usullarini kelgusidagi rivojiga va ishlab chiqarish nazoratini oshirilishiga hissa qo'shuvchi maydalik harakteristikasini aniqlash usulining ishlab chiqilganligida o'z aksini topgan. Shuningdek, ko'p kamerali quvurli tegirmonlari uchun mo'ljallangan perspektiv yuzali zirx plitalar va zirx qoplamalarni loyihalash usullarining ishlab chiqilishi ushbu yo'nalishlarning kelgusidagi rivojiga ijobiy ta'sir qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni sementni maydalash jarayonida qo'llash, ishlab chiqilgan nazorat usuli ishlab chiqarishda sifatni baholash va olingan natijalarni ishonchliligini oshirishda qo'shimcha ko'rsatkich sifatida,

perspektiv yuzali zirx qoplamalar ishlab chiqarish bo'yicha yangi korxonalarni tashkil etishda, qattiq materiallarni maydalashni faollashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quvurli tegirmonlarda sementni maydalash jarayonini jadallashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

quvurli tegirmonlarda maydalash jarayonini jadallashtirish borasida sement tegirmoni qoplamasi «BEKOBODSEMENT» AJ da ishlab chiqarishga joriy etilgan («BEKOBODSEMENT» AJ ning 2022 yil 18 may IV/723-son ma'lumotnomasi, "Sement tegirmoni qoplamasi" FAP 01654, 30.06.2021 y.). Natijada, «BEKOBODSEMENT» AJ dagi o'lchami Ø2×13 m quvurli tegirmon qoplamasining ishchi holati 183 kun (4392 soat) dan keyin ham qoniqarli bo'lishiga erishilgan va amaldagi standart talablariga javob beruvchi mahsulot olish imkonini bergan;

quvurli tegirmon barabani uchun zirx qoplama plitasiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intelektual mulk agentligining foydali modelga patenti olingan (№FAP 01653). Natijada, sement tegirmonining ishlab chiqarish quvvatini soatiga 45 tonnadan 55 tonnaga oshdi, sement mahsulotining 28 kunlik siqilishdagi mustahkamligini o'rtacha 2,2 - 4,0 MPa ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 7 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda mufassal muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan 5 ta ilmiy maqola, shu jumladan, asosiy dissertatsiya natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 1 ta horijiy va 3 ta respublika miqyosidagi jurnallarda, shuningdek, O'z.R. IM Agentligining 3 ta foydali model (FAP 01653, 01654, 01890) uchun patentlari olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasining fan, innovatsiyalar va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos ekanligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va olingan tajriba natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati, ularni ishlab chiqarish amaliyotga joriy qilinishi, tadqiqotlar natijalari asosida olingan patentlar va nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sementni maydalash jarayoni bo'yicha tadqiqot ishlarining hozirgi kundagi holati**» deb nomlangan birinchi bobida quvurli sharli tegirmonlarda qattiq materiallarni maydalashni jadallashtirish qonuniyat va usullari, sementni maydalashni jadallashtirishda sirt-faol moddalar (SFM) ning qo'llanilishi va sementni maydalash jarayonini jadallashtirishda tegirmonlar zirx qoplamasining yangi turlarini ishlab chiqish tadqiqotlari borasidagi zamonaviy ilmiy-texnik

adabiyotlarning qisqacha tahlili bayon etilgan. Ilmiy-texnikaviy adabiyotlarning har tomonlama tahlili asosida tadqiqotlarning maqsadi va asosiy vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot usullari, qoʻllanilgan xom-ashyo va uskuna tavsifi**» nomli ikkinchi bobida tadqiqot ishlarida qoʻllanilgan xom-ashyo materiallarining fizik-kimyoviy tavsiflari hamda fizik-mexanik va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari haqida maʼlumotlar keltirilgan. Tadqiqotlarni bajarishda zamonaviy fizik-mexanik va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari hamda tajribalarni matematik 3D modellashtirishning Solid Works Flow Simulation amaliy dasturlari toʻplamidan foydalanilgan.

Sement sanoatida maydalangan materiallarning maydalik darajasini aniqlashda standartlashtirilgan usullarda nazorat elaklaridagi qoldiq va havo oʻtkazuvchanlikga asoslangan usulda solishtirma sirt yuzasi koʻrsatkichlaridan foydalaniladi.

Standart nazorat elaklari sifatida 02 va 008 raqamli toʻrli elaklar qoʻllaniladi. Solishtirma sirt yuzasining oʻrtacha qiymati, zarrachalar umumiy yuzasining ularning massasiga nisbati koʻrinishida (sm^2/g), havo oʻtkazuvchanlikga asoslangan T-3 qurilmasida aniqlangan.

Quvurli tegirmon tuzilishi va ishlash prinsipi, tegirmonlar quvvati va ishlab chiqarish unumdorligini hisoblash metodikasi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sementni tegirmonlarda maydalash, sirt-faol moddalarning sement klinkeri maydalanishi jarayoniga taʼsiri**» nomli uchinchi bobi laboratoriya sharoitlarida sementni tegirmonlarda maydalash, sirt-faol moddalarning sement klinkeri maydalanishi jarayoniga taʼsiri, qattiq materiallar maydalik darajasini aniqlashning tezkor usulini ishlab chiqish, quvurli tegirmonlarda sementni maydalash jarayonini yangi turdagi zirx qoplamalarini qoʻllash orqali jadallashtirish va sement tegirmonining ichki havo oqimi (aspiratsiya) tizimini oʻrganish tadqiqotlariga bagʻishlangan.

Laboratoriya tegirmonida sementlarni maydalashda "BEKOBODSEMENT" AJ ning zahira ombori va tuyish sexi omboridan olingan klinkerlari ishlatilgan. Ishlab chiqarilayotgan klinkerning maksimal oʻlchami 40 mm dan yuqori boʻlib, bu fraksiyaning ulushi 32,71 % ni tashkil etadi. Oʻrtacha oʻlchami 1,87 mm li minimal oʻlchamli donalar ulushi 0,25 %. Sement klinkerining asosiy fraksiyasining oʻlchami 40-20 mm boʻlib, bu fraksiyaning ulushi 43,34 % ni tashkil etadi (1- jadval).

1- jadval

Klinkerning elakli tahlil natijalari

Namuna olingan joy	Elaklarda ushlab qolingan fraksiyalar miqdori, %					
	≥40 mm	40-20mm	20-10mm	10-5 mm	5-2,5 mm	2,5-1,25mm
Zahira ombori	32,71	43,94	10,36	9,31	3,51	0,25
Tuyish sexi ombori	8,08	42,26	27,68	16,11	5,55	0,32

Birinchi namuna boʻyicha klinker zarrachalarining oʻrtacha oʻlchamlari quyidagicha:

$$d_{o,r} = (32,71 \cdot 40 + 43,94 \cdot 20 + 10,36 \cdot 10 + 9,31 \cdot 5 + 3,51 \cdot 2,5 + 0,25 \cdot 1,25) / (32,71 + 43,94 + 10,36 + 9,31 + 3,51 + 0,25) = 23,44 \text{ mm.}$$

Ikkinchi namuna uchun esa ushbu ko'rsatgich quyidagiga teng:

$$d_{o,r} = (8,08 \cdot 40 + 42,26 \cdot 20 + 27,68 \cdot 10 + 16,11 \cdot 5 + 5,55 \cdot 2,5 + 0,32 \cdot 1,25) / (8,08 + 42,26 + 27,68 + 16,11 + 5,55 + 0,32) = 15,38 \text{ mm.}$$

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan sementlarning elakli tahlili natijalari 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan sementlarning elakli tahlili

Ishlab chiqarish korxonasi	Sementning granulometrik tarkibi, mas. %					Solishtirma sirt yuzasi, sm ² /g
	-0,9 +0,2	-0,2 +0,08	-0,08 +0,05	≤0,05	yo'qotish	
"Bekobod sement" AJ	0,88	8,74	17,77	67,00	5,61	2970
"Quvasoy sement" AJ	0,52	13,75	22,88	55,35	7,50	2935
"KEZAR" MChJ	-	10,86	25,75	58,50	4,89	3015


2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, "Bekobodsement" AJ sementining o'rtacha o'lchami - 0,026 mm, "Quvasoysement" AJ sementining o'rtacha o'lchami - 0,031 mm, "KEZAR" MChJ sementining o'rtacha o'lchami - 0,029 mm bo'lib, yuqoridagi korxonalar uchun maydalash darajasi mos ravishda 591-902, 496-756 va 530-808 ga tengdir.

Laboratoriya tegirmonida portlandsement klinkerini sharli tegirmonda maydalanish kinetikasi 1-rasmda keltirilgan bo'lib, 1- va 2- namunalar orasidagi farq namunalaning boshlang'ich ko'rsatgichlarida deb qaralishi to'g'ri bo'ladi, ya'ni klinkerlarning mineralogik tarkibi va uning qattiqligi maydalash jarayoniga ta'sir etadi.



1-rasm. Portlandsement klinkerini sharli tegirmonda maydalanish kinetikasi

2-rasmda sirt faol moddalarning maydalashga vaqt bo'yicha ta'sirini ko'rish mumkin. Sirt faol modda sifatida TEA qo'llanilganida solishtirma yuza 3200 sm²/g dan 3700 sm²/g gacha ortishi mumkin. Bu esa o'z navbatida olinadigan mahsulot sifati va markasining ortishiga olib keladi.



2-rasm. Sement klinkerini solishtirma sirt yuzasini o'zgarish kinetikasiga sirt faol moddalarning ta'siri

Solishtirma sirt yuzalarini bilgan holda har bir hol uchun 40, 50, 60 va 70 daqiqa oraliqlaridagi solishtirma sirt yuzasini o'sish tezligini hisoblab chiqdik (3-jadval).


3-jadval

Maydalashda solishtirma yuzaning o'sish tezligi


№	Bog'lovchi	SFM	Solishtirma sirt yuzasini o'rtacha o'sish tezligi	Maydalash vaqti, daq.			
				0-40	41-50	51-60	61-70
1	Klinker	-	V ₁ (sm ² /g·sek)	1,019	0,645	0,393	0,216
2	Klinker	TEA	V ₂ (sm ² /g·sek)	1,066	0,740	0,726	0,433

Maydalash jarayonini o'rganish mahsulotning maydalik karakteristikalarini aniqlash bilan bog'liq. Amaldagi tadqiqot usullari ko'p vaqt va mahsus qurilmalarni talab qilishi tufayli, maydalik darajasini aniqlashning sodda va foydalanishga qulay hamda tezkor usulini ishlab chiqish borasida ma'lum og'irlik va maydalik darajasigacha maydalangan namunaning suyuqlikda cho'kishida xar hil hajmdagi cho'kma hosil bo'lishiga asoslangan usulini ishlab chiqdik va bu usulga O'zR. IM Agentligining foydali modelga patenti olindi (FAP 01890).


Tezkor usulga binoan, hajmi 15 ml va shkalasi 0,2 ml boʻlgan oʻlchov silindriga 10 ml suv solinadi. Texnik taroizida 0,01 g aniqlikda sementdan 5,0 g tortib olinadi. Tortib olingan sement voronka orqali oʻlchov silindriga toʻkiladi. Silindr rezina tiqin yoki shisha qapqoq bilan yopiladi va 1 daqiqa davomida silkitib aralashtiriladi. Shundan soʻng silindr 5 daqiqa tinch holatda qoldiriladi. Bu davrda sement zarrachalari choʻkмага tushadi. Choʻkma hajmi oʻlchanadi, mahsus jadvalga kiritiladi va ular asosida "choʻkma hajmi-solishtirma sirt yuzasi" (3-rasm), "choʻkma hajmi-008 elakdagi qoldiq" (4-rasm) va "choʻkma hajmi-zarrachalarning oʻrtacha diametri" (5-rasm) bogʻliqlik grafiklari tuziladi.



3-rasm. "Choʻkma hajmi-solishtirma sirt yuzasi" bogʻliqlik grafiği



4-rasm. "Choʻkma hajmi-008 elakdagi qoldiq" bogʻliqlik grafiği




5-rasm. "Choʻkma hajmi-zarrachalarning oʻrtacha diametri" bogʻliqlik grafiği

Ixtiyoriy olingan sementning maydalik harakteristikasini aniqlash uchun berilgan namunaning choʻkma hajmi yuqoridagicha aniqlanadi va mos grafikdan sementning solishtirma sirt yuzasi, 008 elakdagi qoldigʻi va zarrachalarning oʻrtacha oʻlchami topiladi. Usulning xatolik darajasi $\pm 10\%$ dan oshmaydi.

Quvurli tegirmonlarda sementni maydalash jarayonini yangi turdagi zirx qoplamalarini qo'llash orqali jadallashtirishni loyihalashda jarayonga ta'sir etuvchi barcha omillarni e'tiborga olish kerak bo'ladi.


Ma'lumki, tegirmon harakatga keltirilishi bilan aylanishlar soniga bog'liq holda sharli yuklama pog'onali, sharshara yoki aralash rejimda harakatlanadi. Harakat rejimidan qat'iy nazar, sharli yuklamada kam harakatchan hudud hosil bo'ladi. Buni EDEM Analyst dasturi yordamida olingan tasvirda yaqqol ko'rish mumkin (6-rasm).



6-rasm. Sharli yuklama kam harakatchan hududining tasviri

Quvurli tegirmonlarda effektiv yuzali zirx plitalarni loyihalash orqali maydalash jarayonining samaradorligini oshirish sharli yuklamadagi ana shunday kam harakatchan hududlarni parchalash bilan bog'liqdir. Kam harakatchan hududlarni parchalash orqali maydalash jarayonida shar va material yuklamasining barcha qismi ishtirok etadi va maydalangan materialni maydalash hududidan olib chiqib ketish tezlashadi.

Sharshara rejimida ishlaydigan tegirmonlar uchun mo'ljallangan qoplama sifatida uch to'liqli samarali sirt yuzali plitani taklif etganmiz. Plitaning umumiy ko'rinishi 7a-rasm va chizmasi 7b-rasm keltirilgan.




7-rasm. Uch to'liqli samarali sirt yuzali plita.

Pog'onali rejimda ishlaydigan tegirmonlar uchun mo'ljallangan qoplama sifatida poshnasimon samarali sirt yuzali plitani taklif etganmiz (foydali model patenti FAP 01653). Plitaning umumiy ko'rinishi 8a-rasm va chizmasi 8b-rasm keltirilgan.



a)



b)

8-rasm. Poshnasimon samarali sirt yuzali plita.

Taklif qilingan har ikkala plitalarning geometrik o'lchamlari amalda qo'llanib kelinayotgan zirx plitalar o'lchamiga teng qilib belgilangan. Shu sababdan, tegirmon qoplamasida mazkur plitalarni eski turdagi plitalar bilan aralashtirib terish ham mumkin bo'ladi. Plitalar mos kameralarga joylashtirilganida ko'taruvchi "liftlari" hosil qilib, maydalash jarayonini jadallashtiradi.


Sementning granulometrik tarkibi, maydalash qurilmalarida hosil qilingan sharoit ishlab chiqarishning samaradorligini belgilaydi. O'z navbatida quvurli tegirmon ichki havosi oqimi (tegirmon aspiratsiyasi) sement ishlab chiqarish texnologik tizimida maydalash jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarning asosiylaridan biridir. Quvurli tegirmon ichki havosi oqimi sement ishlab chiqarishda maydalangan materialni maydalash hududidan olib chiqishni ko'zda tutadi. Shunday qilinganida materialning o'ta maydalanishi, maydalangan materialning tegirmon qoplamasi va sharli yuklamasiga yopishib qolishining oldini olish maqsadida maydalashda hosil bo'ladigan suv bug'larining tegirmondan chiqarib yuborilishi, tegirmon haroratining ko'tarilib ketib gips toshining degidratlanishi natijasida sementning tez qotishi masalalari o'z yechimini topadi. Umuman olganda, tegirmon ichki havosi oqimi maydalangan material zarrachalarining tarkibini shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanib, maydalash samarasini belgilaydi.

Matematik 3D modellashtirishning Solid Works Flow Simulation amaliy dasturlari to'plamidan foydalanib olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, ikki kamerali quvurli tegirmonlardagi ichki havo oqimlari tezliklari bir kamerali tegirmonlardan farqlanib, oldin olingan ma'lumotlarni inkor etmaydi.

Ikki kamerali quvurli tegirmonlardagi ichki havo oqimlari tezliklarida kuzatiladigan farq kameralararo to'siqning mavjudligi bilan izohlanishi mumkin. Bunda, havo oqimini hosil qiluvchi mashinadan kelayotgan umumiy havo oqimi tegirmon ichida ikkita mustaqil oqimga ajraladi. Shu bilan birga, tegirmonning birinchi va ikkinchi kameralaridagi oqimlar bir-biridan havo oqimini hosil qiluvchi mashinaning ish rejimiga bog'liq holda tubdan farqlanadi.


Tegirmonning to'kish tomonida havo oqimining tezligi 20 m/s bo'lganida bunday farq yaqqol ko'rinadi (9-rasm). Tegirmonning birinchi kamerasida havo oqimlari chiziqlari tegirmon o'qi bo'ylab jamlangan bo'lsa, ikkinchi kamerada oqim chiziqlari butun kamera hajmi bo'yicha taqsimlangan. Kameralararo to'siq havo

oqimiga qarshilik ko'rsatuvchi omil bo'lib, to'siq tirqishlaridan o'tayotgan havo oqimi tezligi kameradagi tezligidan ancha katta bo'lishiga olib keladi. Natijada, tez harakatlanadigan oqim maydalangan materialdan kichik zarrachalarni o'zi bilan olib ketadi. Shu bilan birga, birinchi va ikkinchi kameradagi havo oqimlari tezligi bir hil ekanligini e'tirof etish kerak.



**9-rasm. Ikki kamerali tegirmonda ichki havo oqimlari
($V=20$ m/s, ranglar gammasi - tezlik o'zgarishi)**

Tegirmonning to'kish tomonida havo oqimining tezligi 45 m/s ga yetganida, tegirmonning ikkinchi kamerasidagi havo oqimining tezligi va uning kamera hajmi bo'yicha taqsimlanishi o'zgaradi (10-rasm).



**10-rasm. Ikki kamerali tegirmonda ichki havo oqimlari
($V=45$ m/s, ranglar gammasi - tezlik o'zgarishi, 9-rasmga mos)**

10-rasmda tegirmonning 2-kamerasida kameralararo to'siq yaqinida havo oqimi tezligi past bo'lgan halqa hosil bo'lganini ko'rish mumkin. Havo oqimi tezligi past bo'lgan halqa maydalangan materialning to'siq orqali o'tishiga to'sqinlik qiladi. Quvurli tegirmon ichidagi aerodinamik sharoitning bunday holatlari havo oqimini

hosil qiluvchi mashinaning katta elektr energiyasi sarflanishi hisobiga sodir bo'ladi va katta tezlik bilan ishlaydigan mashinalarning tez ishdan chiqishiga olib keladi.

Tegirmonning 1-kamerasidagi shiddat bilan turli yo'nalishlarda turbulent o'ramalarning hosil bo'lishi maydalash jarayonining borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, oqim tezligining pasayishi jarayonda ko'taruvchi kuchning kamayishiga, natijada esa, maydalanayotgan material va tegirmon toshlari aralashmasidan kichik o'lchamli zarrachalarning olib ketilishiga olib keladigan bo'lsa, ikkinchidan, turbulent o'ramalarning hosil bo'lishi nisbatan katta o'lchamli zarrachalarning markazdan qochma kuch ta'sirida tegirmon zirx qoplamasiga urilishi natijasida yanada maydalanishiga sabab bo'ladi.

Kameralararo to'siq yaqinida havo oqimi tezligi past bo'lgan halqa hosil bo'lishi, bizningcha, ko'p kamerali quvurli tegirmonlar ishlab chiqarish quvvatini oshirishga to'sqinlik qiladigan asosiy omillardan biri bo'lishi mumkin. Sement ishlab chiqarishning impulsli texnologiyasida kameralararo qiya to'siqli quvurli tegirmonlarni qo'llash takliflari kiritilgan.


Sement ishlab chiqarishning impulsli texnologiyasi V.V.Kafarov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu texnologiyaning mohiyati texnologik jarayonning kinetikasi va gidrodinamikasiga hal qiluvchi ta'sir etuvchi ishchi muhit oqimlarining o'zgartirilishini nazarda tutadi. Impulsli ta'sirning oqim o'zgarishlari sistemaga solinib, uning to'g'ri burchakli, uzlukli, ketma-ket almashinuvli va murakkab kombinatsiyali turlari alohida guruhga birlashtirilgan. Impulsli texnologiyani qo'llashning samarasi, xususan qattiq materiallarni maydalashda, kam harakatchan hududlar, teskari oqimlarning hosil bo'lishi va materiallarning tegirmon uzunligi bo'yicha qayta taqsimlanishini yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan.

Maydalashning impulsli texnologiyasida tegirmon yoki uning kameralarida gaz-material oqimlarining tuzilish ko'rsatkichlari sifatida tegirmonda aspiratsiya havosi, aralashma va uning alohida komponentlarining o'tish vaqti olinadi. Shuningdek, ushbu oqimlarga taaluqli Pekle sonining ko'rsatkichlari ahamiyatlidir. Pekle sonining ortishi oqim harakatining tartibga solinganligi va ideal siqib chiqarish rejimiga yaqinlashganidan darak beradi.

Quvurli tegirmonlarda kameralararo qiya to'siqlarni vertikal to'siqlar o'rniga o'rnatish ham sharli yuklama harakatini yaxshilashni ko'zda tutadi. Kameralararo qiya o'rnatilgan to'siqlar tegirmon yuklamasining og'irlik markazini gorizontal va vertikal tekisliklar bo'yicha surilishini ta'minlab, kameralararo to'siq yaqinida havo oqimi tezligi past va turg'un bo'lgan hududlarni parchalashga xizmat qiladi. Turg'un hududlar parchalanishi kameralararo qiya o'rnatilgan to'siqlarda materialning to'kilishi hisobiga amalga oshadi.

Bu jarayonni 3D modellashtirishning Solid Works Flow Simulation amaliy dasturlari to'plami yordamida olingan tasvirlarimizda yaqqol ko'rish mumkin (11-rasm). Tegirmon aylanishi davrida qiya to'siqlar havo oqimi tezligi kattaroq hududga o'ta oladi. Qiya to'siq ustiga shar-material yuklamasining to'kilishi bilan birga, havo oqimi tezligining ortishi hisobiga havo oqimining ko'tarish kuchi kattalashadi va ko'proq miqdorda maydalangan zarrachalarni olib chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Natijada, tegirmonning maydalash unumdorligi ortadi, elektr energiyasining solishtirma sarfi kamayadi.




11-rasm. Kameralararo qiya o‘rnatilgan to‘siqlari bo‘lgan ikki kamerali tegirmondagi ichki havo oqimlari (V=45 m/s, ranglar gammasi - tezlik o‘zgarishi, 9-rasmga mos)

Tegirmon ichki havosi oqimlariga oid izlanishlarimiz natijalari va chop etilgan ilmiy maqolalar tahlili asosida quyidagi imkoniyatlar yuzaga kelishi mumkin:

- elektr energiyasining solishtirma sarfini 10% ga kamaytirish;
- to‘siqlardagi tirqishlar hajmini 40-50% ga oshirib, ichki havo oqimlari samaradorligini ko‘tarish;
- sement va havo oqimi haroratini 10 °C ga kamaytirish;
- tegirmon toshlari massasi birligiga nisbatan sement ishlab chiqarishni 1,4 barobarga oshirish.

Dissertatsiyaning "**Ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotda joriy qilinishi**" nomli to‘rtinchi bobida ikki kamerali sement tegirmonini yangi avlod zirx plitalar bilan qoplash sxemasi va maydalik harakteristikasini aniqlashning tezkor usuli aprobatsiyasi ma‘lumotlari keltirilgan.

Ikki kamerali quvurli tegirmon uchun maydalash jarayonini jadallashtiruvchi qoplama sxemasi taklifiga O‘z.R. IM Agentligining foydali modelga patenti olingan (FAP 01654). Qoplama sxemasida yuqorida keltirilgan yangi turdagi perspektiv sirt yuzali plitalar qo‘llanilgan (12-rasm).



12-rasm. Ikki kamerali quvurli sement tegirmoni qoplamasi sxemasi

Sement tegirmoni qobiq 1, kirish 2 va chiqish 3 tomonlari, kameralararo to'siq 4 hamda turli xil sirt yuzali zirx plitalar qoplamasidan tashkil topgan. Qoplama qobiq aylanasi bo'ylab o'rnatilgan 25 qator plitalardan iborat bo'lib, unda konus-to'lqinli 5, tekis yuzali 6, poshnasimon 7 va texnologik ko'taruvchi "lift" li 8 plitalar ishlatilgan.

Quvurli tegirmon birinchi kamerasing kirish tomonida ikki qator konus-to'lqinli 5 plitalar o'rnatilgan: birinchi qatorda ularning yo'nalishi kamera ichkarisiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi qatoridagilar kirish tomonga qaratilgan. Bunda yirik sharlar kirish tomonda to'planib, zarb ta'sirida maydalinishi tezroq boradi.

Qoplamaning 3-7 qatorlari uch to'lqinli samarali sirt yuzali plita 8 dan tashkil topgan. Ko'taruvchi "lift" balandligi aylanish yo'nalishida kamayib boradi.


Qoplamaning 8- va 9- qatori kirish tomoniga qaratilgan konus-to'lqinli 5 plitalardan terilgan. Plitalar yo'nalishi kameralararo to'siqqa yaqin hududda katta shar va materiallarning yig'ilib qolishining oldini oladi.

Qoplamaning 10-25- qatorlari taklif etilgan poshnasimon sirt yuzali 7 plitalardan iborat. Tegirmon qoplamasining 7- va 26- qatori tekis yuzali 6 plitalardan shakllangan.

Aynan shu tartibda o'rnatilgan zirx plitalari qoplamasi "BEKOBODSEMENT" AJ dagi 4-sement tegirmonida 2020 yil aprel oyida o'rnatilgan. Sement tegirmonining o'lchami Ø2,6x13,0 m, birinchi kamerasing o'lchami Ø2,46x6,0 m, ikkinchi kamerasing o'lchami Ø2,56x6,75m. Tegirmonning aylanishlari soni - 18,2 marta/daq. ("BEKOBODSEMENT" AJ ning 2022 yil 18 may IV/723 - sonli ma'lumotnomasi).

Qoplama sxemasiga asosan, qoplamada konus-to'lqinli plitalardan 1-2-8-9-qatorlar uchun 104 dona, yangi uch to'lqinli samarali sirt yuzali plitalardan 3-4-5-6-7-qatorlar uchun 156 dona, poshnasimon yangi sirt yuzali plitalardan 12-13-14-15-16-17-18-19-20-21-22-23-24-25-qatorlar uchun 364 dona va yuzasi tekis plitalardan 26-qator uchun 26 dona ishlatilgan. Qoplama uchun ishlatilgan barcha zirx plitalari "Bekobodsement" AJ ning metall quyish sexida tasdiqlangan chizmalar asosida quyilgan (ilova 1).

Tegirmon 6 oy mobaynida (4392 soat) ishlaganidan so'ng zirx qoplama holati qoniqarli ekanligini 13-rasmdan ko'rish mumkin.



13-rasm. Ikki kamerali sement tegirmoni birinchi (a) va ikkinchi kamerasi (b) qoplamasi, 6 oydan keyingi holat

Tegirmon qoplamasining plitalari har ikkala kamerada bir tekisda yedirilgan. Plitalarda sinishlar va yoriqlar kuzatilmagan.

Tegirmonda yangi qoplama o'rnatilgandan so'ng, tegirmon ishlab chiqarish unumdorligi soatiga 2-3 tonnaga oshganligi qayd etilgan.

Quvurli tegirmonlarda sementni maydalash jarayonini jadallashtirish, tegirmon ish quvvatini oshirish va solishtirma energiya sarfini kamaytirish maqsadida "NAMANGANSEMENT" MChJ da o'rnatilgan o'lchami Ø3,2x13 m bo'lgan separatorli sement tegirmonida 2022 yilning dekabr oyida amalga oshirilgan rekonstruksiya ishlarida quyidagilar bajarildi: 3 kamerali tegirmonning 1- va 2-kameralari orasidagi to'siq olib tashlandi, 2- va 3- kameralar orasidagi to'siq esa 6,75m gacha surilib, tegirmon ikki kameralikka o'tkazildi. Bunda 1- kamera uzunligi 6,75 m, 2- kamera uzunligi 5,75 m qilib belgilandi. Tegirmonning 1-kamerasi konus-to'lqinli plitalar bilan qoplangan bo'lsa, 2- si poshnasimon yangi sirt yuzali plitalar bilan qoplandi ("NAMANGANSEMENT" MChJ ning 2023 yil 3 may 70 - sonli ma'lumotnomasi).

Natijada, sement tegirmonining ishlab chiqarish quvvati 45 tonna/soatdan 55 tonna/soatga oshdi, sement mahsulotining 28 kunlik siqilishdagi mustahkamligi o'rtacha 2,2 - 4,0 MPa ga ortdi va 1 tonna sement ishlab chiqarishga sarflanadigan elektr energiyasi miqdori 106 kVt dan 98 kVt ga kamaydi ("NAMANGANSEMENT" MChJ ning 2024 yil 8 yanvar 5 - sonli ma'lumotnomasi).

Sement va boshqa materiallarning maydalik darajasini aniqlash usuli Urganch Davlat Universitetida o'quv jarayoniga joriy qilingan (Urganch Davlat Universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil 24 iyundagi 5 - sonli yig'ilishining bayonnomasi). Natijada, ishlab chiqarish va laboratoriya sharoitlarida sementlarning maydalik karakteristikalarini aniqlashning tezkorligini oshirish imkonini bergan.

XULOSA

“Quvurli tegirmonlarda sementni maydalash jarayonini jadallashtirish” nomli texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olindi va xulosalar qilindi:

1. Sirt-faol moddalar ishtirokida maydalash jarayonini jadallashtirish natijasida 0,03% trietanolamindan foydalanish orqali maydalashga sarflangan elektr energiyasining solishtirma sarfi 28,5% ga kamayishi, tegirmonning solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi esa 39,09% ga oshirishga erishildi.

2. Sement karakteristikalarini tezkor aniqlash, kam vaqt talab etadigan usuli ishlab chiqildi, usulning xatolik darajasi 10% dan oshmaydi. Ushbu usul ishlab chiqarish korxonalarida va Oliy ta'lim tizimida laboratoriya mashg'ulotlarida sement hususiyatlarini tezkor aniqlashda qo'llash tavsiyalar berildi.

3. Sharshara rejimida ishlaydigan quvurli tegirmonlar uchun mo'ljallangan qoplama sifatida uch to'lqinli samarali sirt yuzali zirx plita taklif etildi. Natijada, sharshara rejimida ishlaydigan sharli tegirmonlarda zarb kuchi 1,2 marta oshib maydalash jarayoni tezlashadi.

4. Pog'onali rejimda ishlaydigan quvurli tegirmonlar uchun mo'ljallangan qoplama sifatida poshnasimon samarali sirt yuzali plitaning yangi turi ishlab chiqildi.

Natijada, materialdan kichik o'lchamli ($\geq 0,05$ mm) zarrachalar intensiv ajratib olindi va tegirmonning ishlab chiqarish qobiliyati 25% ga ortdi.

5. Effektiv yuzali zirx plitalardan tashkil topgan qoplamalarni quvurli tegirmonlarda qo'llash natijasida maydalash jarayoni samaradorligini 1,1-1,2 barobarga oshirish mumkinligi isbotlandi.

6. Maydalash jarayonini matematik 3D modellashtirishning Solid Works Flow Simulation amaliy dasturlari to'plami yordamida tahlil qilish natijasida ikki kamerali tegirmonlarda unumdorlikni oshirishga to'sqinlik qiluvchi kameralararo to'siq yaqinida havo oqimi tezligi past bo'lgan hududlar hosil bo'lishi aniqlandi va tegirmonlarda kameralararo qiya o'rnatilgan to'siqlardan foydalanish 25-30% ga samara berishi asoslab berildi.

7. "NAMANGANSEMENT" MChJ ning Texnik kengashida taklif etilgan tegirmon zirx qoplamasi, "BEKOBODSEMENT" AJ va "NAMANGANSEMENT" MChJ da olib borilgan ishlar muhokamadan o'tkazilgan va ishlanmalarga "Innovatsion loyiha" sifatida baho berilgan. Quvurli tegirmonlar ishlab chiqarish unumdorligini soatiga 10 tonnaga oshirish orqali yillik ishlab chiqarish quvvati 750000 tonna bo'lgan sement korxonasiida 2 mlrd. 730 mln. so'm iqtisodiy samara olish mumkin.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.12.2019.Т.04.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**АКАДЕМИЯ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

СУЛТОНОВА МАСЪУДА АБДУВАЛИЕВНА

**ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ПРОЦЕССА ПОМОЛА ЦЕМЕНТА В ТРУБНЫХ
МЕЛЬНИЦАХ**

**02.00.16 – Процессы и аппараты химических технологий и пищевых производств
(технические науки)**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Узбекистан за В2024.1.PhD/Т4397

Докторская диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tkti.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Хурмаматов Абдугоффор Мирзабдуллаевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Сафаров Жасур Эсерганович
доктор технических наук, профессор

Нигмаджанов Самугжан Каримжанович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация: Гулистанский Государственный университет

Защита диссертации состоит « 6 » 01 2024 года в 9:00 часов на заседании Научного совета DSc. 03/30.12.2019.Т.04.01 при Ташкентском химико-технологическом институте. (Адрес: 100011, г. Ташкент, Шайхантахурский район, улица А.Навоий, 32. Тел.: (99871) 244-79-20; факс: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti_info@edu.uz. Административное здание).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института (зарегистрирован за № 889). (Адрес: 100011, г. Ташкент, Шайхантахурский район, улица А.Навоий, 32. Тел.: (99871) 244-79-20; факс: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti_info@edu.uz).

Автореферат диссертации рассмотрен 12 2024 года.
(протокол рассылки № 484 от 12 2024 года).




Туробжонов С.М.
Председатель разового научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., академик


Кадиров Х.И.
Ученый секретарь разового
научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор


Рахмонбердиев Г.Р.
Председатель разового научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в промышленности строительных материалов, т.е. при производстве цемента, важное место занимает внедрение современных технологий энерго- и ресурсосбережения, снижение удельного потребления электроэнергии при производстве продукции. Мощность современных предприятий по производству цементов составляет 1-3 млн. тонн. Основная часть потребляемой электрической энергии приходится на измельчение сырьевых материалов, их перемешивания, обжиг, на помол полученного клинкера совместно с гипсом и добавками. Поэтому, совершенствование конструкций помольных агрегатов и создание схем получения продукции высокого качества соответствующих мировым экологическим требованиям является одним из приоритетных задач.

В мире общее развитие технологий измельчения цементных изделий, то есть рекомендации по более широкому внедрению двухступенчатой системы измельчения на предприятиях, широко признаны в качестве преимуществ вертикальных мельниц для крупного помола клинкера. Особое внимание уделяется внедрению процессов измельчения в эффективных устройствах, расчету шарнирных мельниц и разработке высокоэффективных измельчающих элементов, замене и испытанию существующих на производственных и эффективных образцах.

В производственной сфере строительных материалов и изделий нашей республики проводятся исследования по углублению производственных реформ и их развитию, совершенствованию типа строительных материалов, изделий и конструкций. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены такие важные задачи, как "поднятие промышленности на качественно новый уровень, глубокая переработка местных источников сырья, ускорение производства готовой продукции, освоение новых видов продукции и технологий"². Важное научное значение в связи с этим имеет повышение качества продукции, разработка устройств, позволяющих снизить энергетические затраты, создание современных технологий процесса измельчения цемента.

Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы", ПП-4265 от 3 апреля 2019 года "О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению ее инвестиционной привлекательности", ПП-4302 от мая 1 июля 2019 года "О мерах по дальнейшему развитию промышленной кооперации и расширению производства продукции, пользующейся высоким спросом" и ПП-307 от 6 июля 2022 года "О стратегии инновационного развития Республики Узбекистан в 2022-2026 годах", а также задачи других нормативно-правовых документов, связанных с деятельностью в данной сфере, данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации решений задач, указанных в данных документах.

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данная работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики VII «Химические технологии и нанотехнологии».

